

## O‘TKIR HOSHIMOV VA TOHIR MALIK ASARLARIDA MIMIK IFODALARNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

*Qalandarova Sevara Sattorovna,  
Urganch davlat universiteti Lingvistika  
(o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti*

Tilshunoslikda mimika tushunchasi kishi yuzining ma’noli turli harakatlari ifodasiga nisbatan qo‘llaniladi.

Shu kunga qadar jahon tilshunosligida tilning mimik noverbal vositalari tadqiqiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, M.Saidxonovlarning bu sohada amalga oshirgan ishlari diqqatga sazovor<sup>1</sup>.

Ma’lumki, o‘zbeklar nutqida qo‘llanuvchi turli mimik harakatlar ham imo-ishoralar singari ma’lum axborotni ifoda etish vazifasini bajaradi. Jumladan, insonning yuzidagi turli o‘zgarishlar – mimik ifodalar ifodalanayotgan fikrni to‘ldirish, uning o‘rnini bosish va kuzatib borish, kishilarning turli ruhiy holati haqida ma’lumot berish kabi vazifalarni bajaradi.

Kishilardagi ma’noli yuz o‘zgarishlari tabiiy fiziologik hodisa hisoblanadi. Masalan, inson yig‘laganida yoki kulganida, qichqirganida tabiiy holatda yuzida turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bunday vaqtdagi yuz o‘zgarishlari insonning turli psixik va ruhiy holatini ham aks ettiradi.

Muomala jarayonida insonning asosiy maqsadi fikr almashinuv ekan, bu maqsadni amalga oshirish jarayonida inson turli yo‘llar va usullar orqali, jumladan, mimik vositalardan ham foydalangan holda o‘z fikrini tinglovchiga yetkazishga harakat qiladi. Natijada verbal vosita bilan birga mimik noverbal vositalar ham nutqiy muloqotda ishlatilib keladi.

Fransuz olimi Sh.Balli fransuz tilidagi nutqiy aloqa-aralashuv vositalari haqida mulohazalarini bayon etar ekan, «ishoralar, badan harakatlari, gavda, va ayniqsa, mimik harakatlar tilning birliklari singari aniq va barcha uchun tushunarli ma’no bildirishi» ni asoslab beradi<sup>2</sup>.

Mimik noverbal vositalar fikr ifodalashda eng ko‘p ishlatiladigan usullardan biri sanaladi.

M.Saidxonovning fikricha, «insonning yuzida nutqiy muloqotda, monologik nutqda, ichki monologda, o‘ylayotganda va sukut holatda ham ma’noli o‘zgarishlar o‘z ifodasini topadi. Muomala jarayonini kuzatish paytida o‘n daqiqalik dialogda

<sup>1</sup> Каранг: Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. - Андижон, 1980; Саидхонов М. Ўзбек тилининг новербал воситалари: Филол.фан.ном. ... дис.автореф. – Тошкент, 1994.

<sup>2</sup> Ш.Балли. Общая лингвистика и вопросы французского языка. - М., 1955.

ishlatilgan noverbal vositalarning 60 foizi mimik noverbal vositalarga to'g'ri kelgan va turli badan, gavda harakatlari, fonatsion noverbal vositalar ishlatilganda ham mimik noverbal vositalar yordamchi vosita vazifasida qo'llangan, chunki inson tirik mavjudot ekan, har qanday axborotda uning reaksiyasi yuz organlari orqali namoyon bo'ladi»<sup>3</sup>.

Mimik ifodalar murakkab struktur tuzilishga ega bo'lib, ular ifodalaydigan ma'no ham murakkab harakat va holatlar yig'indisidan tashkil topadi.

Tildagi kommunikativ vazifa bajaruvchi mimik ifodalarning verbal ifodasi doimiy ishlatiluvchi, komponentlari to'liq shakllangan birliklardir. Masalan, *labini burmoq, aftini burishtirmoq, yuzini o'girmoq, qovog'ini uymoq, qoshini uchirmoq, ko'zini olaytirmoq, burnini jiyirmoq* kabi mimik ifodalar turg'unlashgan so'zlar birikuvidan tashkil topgan butunlik hisoblanadi. Bu kabi birliklar ikki yoki undan ortiq so'zlar yig'indisidan tuzilganligi bilan so'z birikmalariga teng kelsa, so'zlar o'rtasidagi semantik aloqa mavjudligi bilan frazemalarga (iboralarga) yaqinlashadi, bir tushunchani ifoda etishi jihatidan esa so'zlarga tenglashadi.

Mimik noverbal vositalarning til sathida verbal ifodasidagi komponentlari so'z birikmasi komponentlari singari erkin tuzilishga ega emas, mimik vositalarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi semantik bog'liqlik ularni so'zlarning erkin birikmalaridan farqlab turadi.

Anglashiladiki, mimik noverbal vositalarni ifoda etuvchi birliklar tilning semantik va struktur jihatdan murakkab va o'ziga xos alohida sathini tashkil etadi.

O'zbek tilida mimik noverbal vositalarga **lab, ko'z, qosh, til, tish, burun** va **yuz muskullari** harakatini aks ettiruvchi birliklar kiradi. Bunday noverbal vositalar asosiy hollarda kishilarning emotsional-psixik holati haqida qo'shimcha ma'lumot tashiydi.

O'.Hoshimov va T.Malik asarlarida, asosan, **lab, qosh, yuz** harakatlarini aks ettiruvchi mimik ifodalar qo'llanganligi aniqlandi. Quyida bunday mimik ifodalarning badiiy matnda bajargan vazifasi xususida mulohaza yuritamiz.

Ma'lumki, lab harakati nutq tovushlarni hosil qilishda qo'llanuvchi faol nutq organ hisoblanadi. Lab nutq organi bo'lishi bilan birga, fikr ifodalashning noverbal vositasi sifatida ma'lum axborotni uzatuvchi vosita ham sanaladi.

O'.Hoshimov va T.Malik asarlarida lab harakatini aks ettiruvchi *labini cho'chchaytirmoq, labini burmoq, labini tishlamoq* noverbal vositalari ishlatilgan.

*Labini cho'chchaytirmoq* noverbal vositasi nutqiy muloqot jarayonida inkor, mensimaslik, bexabarlik ma'nolarini, *labini burmoq* noverbal vositasi hayronlik ma'nosini, *labini tishlamoq* noverbal vositasi betoqatlik, achinish, afsuslanish, ovoz chiqarmaslik ma'nolarini aks ettiradi. Masalan:

– *Nima qilaylik, Oqsoqol, – dedi labini buribroq, – urush qurbonsiz bo'lmaydi, – chirt etib tupurdi-yu, darvoza tomon ketdi.* (O'.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

<sup>3</sup> Саидхонов М. Ўзбек тилининг новербал воситалари: Филол.фан.ном. ... дис.автореф. – Тошкент, 1994.

Ushbu misolda qo‘llangan *labini buribroq* noverbal vositasi achinish, afsuslanish ma‘nolarini ifoda etgan.

Quyidagi misolda esa *labi burilmoq* noverbal vositasi hayronlik ma‘nosini anglatadi:

– *Kiring, – dedi u yupqa lablari burilibroq. – Oyim uydalar.* (O‘.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

O‘.Hoshimov asarida qo‘llangan quyidagi noverbal vosita «jim», «indamaslik», «ovoz chiqarma» ma‘nolarini ifodalaydi. Masalan:

– *Jim, – dedi u barmog‘ini labiga bosib. – Ukang uyg‘onib qolmasin* (O‘.Hoshimov).

Ma‘lumki, qosh harakati asosidagi ishora asosan nutqiy jarayonni to‘ldirib, uning ta‘sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. O‘.Hoshimov va T.Malik asarlarida qo‘llangan qosh harakatini aks ettiruvchi noverbal vositalar ham nutqiy jarayonni to‘ldiradi, kishilar haqida qo‘shimcha axborot tashiydi.

Adiblar asarlarida qosh harakatini aks ettiruvchi *qoshini chimirmoq* noverbal vositasining keng qo‘llanganligi kuzatildi.

O‘.Hoshimov va T.Malik asarlarida qosh harakatini aks ettiruvchi *qoshini chimirmoq* bilmaslik, mensimaslik, ajablanish, taajjub, do‘q-po‘pisa, g‘azab kabilarni ifoda etadi. Masalan:

– *Ha, – dedi Tengiz, qoshlarini chimirib. Hazar qilyapsanmi?* (T.Malik. «Murdalar gapirmaydilar»).

Ushbu misolda qo‘llangan *qoshlarini chimirib* noverbal vositasi ajablanish, taajjubni ifoda etgan.

Quyidagi misollarda esa *qoshini chimirmoq* noverbal vositasi shaxsning noroziligi, e‘tirozi, g‘azabini aks ettirgan:

*Xolposh xola yasama dashnom bilan qoshini chimirdi.* (O‘.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

– *Yomonmi! – Bashor opa qoshini chimirdi.* (O‘.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

*Dadam qoshini chimirib, shaftolining po‘stini archib berdi.* (O‘.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

O‘.Hoshimov va T.Malik asarlarida yuz harakatlarini aks ettiruvchi mimik ifodalarning ham qo‘llanishi kuzatiladi.

Ma‘lumki, yuz insonning nutqiy muloqotida faol qatnashuvchi organi sanaladi. Yuz orqali mantiqiy asosli fikrni, shu bilan birga, turli his-tuyg‘uni ifodalash mumkin bo‘ladi.

O‘.Hoshimov va T.Malik asarlarida yuz harakatini aks ettiruvchi *yuzini o‘girmoq, yuzini burmoq, aftini burishtirmoq* mimik ifodalari qo‘llangan, Bu kabi mimik ifodalar badiiy matnda yozuvchining ma‘lum bir maqsadlarini aks ettiradi. Masalan:

– *Yo‘g‘-a, men saharlab ketishim kerak! – ammam yuzini o‘girdi.* (O‘.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

Berilgan misolda qo‘llangan *yuzini o‘girdi* mimik harakati xohlamaslik, norozilik kabi munosabatlarni ifoda etgan.

Ayrim hollarda *yuz o‘girmoq* mimik ifodasi jumla mazmuniga e‘tiroz, ajablanish, taajjub, uyalish kabi ma‘nolarni qo‘shadi. Masalan:

– *Qirq uch so‘m pulmi? – dedi yuzini chir o‘girib.* (O‘.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

Yuz harakati bilan bog‘liq mimik ifodaga *aftini burishtirmoq* noverbal vositasi ham kiradi. Bu mimik ifoda azoblanish ma‘nosini kuchaytiradi. Masalan:

– *Shunaqa maqol bor, – dedi Omonullo og‘riqdan aftini burishtirib.* (T.Malik. «Murdalar gapirmaydilar»)

O‘.Hoshimov va T.Malik asarlarida ko‘z, qovoq harakatlarini aks ettiruvchi *ko‘zini lo‘q qilmoq, qovoq solmoq, qovoq uymoq* mimik ifodalari ham qo‘llanadi. Bunday mimik ifodalar ham badiiy matnda qo‘shimcha fikr ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

– *Tengiz shunday deb ko‘zlarini lo‘q qilganicha unga tikildi.* (T.Malik. «Murdalar gapirmaydilar»)

– *Yo‘q, o‘zim... – dedi dadam hamon qovog‘ini solib.* (O‘.Hoshimov. «Ikki eshik orasi»)

– *Ha, ochofat, darrov yutdingmi? – dedi Omonullo unga qovoq uyub qarab.* (T.Malik. «Murdalar gapirmaydilar»)

Birinchi misolda *ko‘zlarini lo‘q qilmoq* mimik ifodasi nafratni, keyingi misollarda qo‘llangan *qovog‘ini solib, qovoq uyub* ifodalari esa arazlashni aks ettirgan.

Misollar tahlilidan ma‘lum bo‘ladiki, O‘.Hoshimov va T.Malik asarlarida qo‘llangan mimik ifodalar tuzilishi jihatidan so‘z birikmalariga o‘xshaydi, ammo yaxlit mazmunni ifodalashi jihatidan ulardan farqlanadi.

Xullas, nutqiy muloqot jarayonida ma‘lum axborotni tinglovchi shaxslarga uzatishda turli mimik ifodalar ham qo‘llanadi. Badiiy matnda qo‘llangan bunday mimik ifodalar noverbal vosita sifatida ko‘proq tasvirlovchi, izohlovchi vazifa bajaradi.

Mimik noverbal vositalar orqali ayrim hollarda muayyan axborot ifoda etiladi. Bunday holda mimik ifodalar til vositalariga yordamchi vosita vazifasini bajarib, jumlaning semantik jihatdan to‘ldiradi, unga qo‘shimcha mazmun kiritadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. - Андижон, 1980;
2. Ш.Балли. Общая лингвистика и вопросы французского языка. - М., 1955.
3. Саидхонов М. Ўзбек тилининг новербал воситалари: Филол.фан.ном. ... дис.автореф. – Тошкент, 1994.
4. Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатларнинг юзага чиқиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент. 1994.
5. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1- қисм. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980.